

## TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI BAHOLASHDA TASHQI SAVDONI MOLIYALASHTIRISH INDIKATORLARIDAN FOYDALANISH

**Babadjanov Shuhrat Atxamovich**

*"Ipoteka-bank" ATIB, Savdoni moliyalashtirish departamenti boshlig'i, TDIU, mustaqil izlanuvchisi, e-mail: Shukhrat.Babadjanov@ipotekabank.uz ORCID: 0009-0004-2591-7189*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada tijorat banklari moliyaviy xavfsizligini baholashda tashqi savdoni moliyalashtirish operatsiyalariga xos indikatorlardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Tashqi savdo hajmining kengayishi, xalqaro hisob-kitoblarning murakkablashuvi va valyuta hamda kontragent risklarining kuchayishi sharoitida akkreditivlar, bank kafolatlari, eksport-import kreditlari, faktoring, forfeyting kabi trade finance instrumentlari banklar uchun daromad manbai bo'lishi bilan birga, qo'shimcha moliyaviy xavflarni ham yuzaga keltiradi. Maqolada kapital yetarliligi, likvidlik, aktivlar sifati va daromadlilik kabi an'anaviy indikatorlar tashqi savdoni moliyalashtirish faoliyati bilan shug'ullanuvchi banklar moliyaviy xavfsizligini to'liq baholash uchun yetarli emasligi asosanib, tashqi savdoni moliyalashtirish faolligi, risklilik, daromadlilik va konsentratsiya koeffitsientlaridan foydalanish taklif etilgan. Tadqiqot natijasida mazkur indikatorlarni bank moliyaviy xavfsizligini baholash tizimiga integratsiya qilish bo'yicha ilmiy-amaliy yondashuv ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tijorat banklari, moliyaviy xavfsizlik, tashqi savdoni moliyalashtirish, trade finance, bank risklari, kapital yetarliligi, likvidlik, valyuta riski, bank kafolati, akkreditiv, indikatorlar, konsentratsiya riski.*

### KIRISH

Jahon iqtisodiyotida tashqi savdo operatsiyalari va xalqaro hisob-kitoblar hajmining ortishi tijorat banklari faoliyatida tashqi savdoni moliyalashtirish mexanizmlarining ahamiyatini kuchaytirmoqda. Eksport-import shartnomalarini moliyaviy ta'minlash, to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilishi va kontragentlar majburiyatlarining bajarilishi ko'p jihatdan banklar tomonidan taklif etilayotgan akkreditivlar, bank kafolatlari, eksport-import kreditlari, faktoring va boshqa trade finance instrumentlari samaradorligiga bog'liq.

O'zbekiston iqtisodiyotida ham tashqi savdo aloqalarining kengayishi ushbu yo'nalishning dolzarbligini oshirmoqda. 2024-yil yakunlariga ko'ra, respublika tashqi savdo aylanmasi 65,934 mlrd AQSH dollarini tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 3,8 foizga oshgan. Shundan eksport hajmi 26,948 mlrd AQSH dollarini, import hajmi esa 38,986 mlrd AQSH dollarini tashkil qilgan [1]. Mazkur holat tijorat banklarida tashqi savdoni moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanish ko'lamining kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Tashqi savdoni moliyalashtirish bank faoliyatiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, u banklarning foiz va komissiya daromadlarini oshiradi, mijozlar bazasini kengaytiradi va real sektorning eksport-import faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Ikkinchi tomondan, ushbu operatsiyalar kredit, valyuta, kontragent, mamlakat, hujjatli, likvidlik, operatsion va konsentratsiya risklarini yuzaga keltiradi. Xalqaro moliyaviy muhitdagi beqarorlik, valyuta kurslari tebranishi va logistika zanjirlaridagi uzilishlar bu risklarni yanada kuchaytirmoqda [2].

Xalqaro amaliyotda tijorat banklari moliyaviy xavfsizligini baholashda kapital yetarliligi, likvidlik, aktivlar sifati, daromadlilik va bozor risklariga sezuvchanlik kabi indikatorlar keng qo'llaniladi [3], [4]. Biroq tashqi savdoni moliyalashtirish bilan shug'ullanuvchi banklar uchun umumiy moliyaviy ko'rsatkichlar yetarli emas. Chunki eksport-import kreditlari bank aktivlari tarkibida aks etsa, bank kafolatlari, standby akkreditivlar va ayrim hujjatli instrumentlar balansdan tashqari majburiyatlar sifatida bankning ehtimoliy to'lov riskini yuzaga keltiradi.

Shu sababli bank moliyaviy xavfsizligini baholashda tashqi savdoni moliyalashtirish hajmi, ushbu operatsiyalar bo'yicha risklilik darajasi, trade finance daromadlari ulushi va portfel konsentratsiyasi kabi maxsus indikatorlarni ham hisobga olish zarur. Mazkur maqolada tijorat banklari moliyaviy xavfsizligini baholashda an'anaviy bank indikatorlarini tashqi savdoni moliyalashtirishga xos maxsus ko'rsatkichlar bilan to'ldirish zarurligi asoslanadi.

#### Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Tijorat banklari moliyaviy xavfsizligi xalqaro adabiyotlarda, asosan, kapital yetarliligi, likvidlik, aktivlar sifati, daromadlilik va risklarga bardoshlilik ko'rsatkichlari orqali baholanadi. Xususan, Xalqaro valyuta jamg'armasining Financial Soundness Indicators tizimida bank sektori barqarorligini baholashda ushbu indikatorlar asosiy mezonlar sifatida belgilanadi [3]. Basel III standartlarida esa kapital bazasini mustahkamlash, likvidlik riskini cheklash va risklarni boshqarish bank barqarorligining muhim shartlari sifatida qaraladi [4].

Tashqi savdoni moliyalashtirishga oid xalqaro yondashuvlarda trade finance eksport-import operatsiyalarining uzluksizligini ta'minlovchi, to'lov va yetkazib berish risklarini kamaytiruvchi hamda xalqaro hisob-kitoblarni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy xizmatlar majmui sifatida talqin qilinadi [5], [6]. Bu esa tashqi savdoni moliyalashtirishni faqat kreditlash emas, balki akkreditivlar, bank kafolatlari, hujjatli hisob-kitoblar, likvidlikni ta'minlash va risklarni boshqarish mexanizmi sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Mahalliy tadqiqotlarda B.U. Akbarov, D.M. Malikova, F.X. Axmedov va Sh.I. Xudaynazarov tomonidan bank moliyaviy xavfsizligi, bank barqarorligi, tashqi savdoga xizmat ko'rsatish, valyuta risklari va eksportni moliyalashtirish instrumentlari masalalari yoritilgan [8], [9], [11], [12]. Biroq mavjud tadqiqotlarda tashqi savdoni moliyalashtirish mexanizmlarining tijorat banklari moliyaviy

xavfsizligiga ta'sirini trade finance faolligi, risklilik, daromadlilik va konsentratsiya indikatorlari orqali kompleks baholash masalasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu sababli mazkur maqolada bank moliyaviy xavfsizligini baholash tizimini tashqi savdoni moliyalashtirishga xos maxsus indikatorlar bilan boyitish zarurati asoslanadi.

#### Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda tijorat banklari moliyaviy xavfsizligini baholashda tashqi savdoni moliyalashtirish operatsiyalariga xos indikatorlardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash uchun tizimli, omilli, indikatorli va taqqoslama tahlil usullaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv tashqi savdoni moliyalashtirishni bankning alohida xizmat turi sifatida emas, balki kapital, likvidlik, aktivlar sifati, daromadlilik, valyuta pozitsiyasi, balansdan tashqari majburiyatlar va risk-menejment tizimi bilan bog'liq kompleks bank mexanizmi sifatida o'rganish imkonini beradi.

Tadqiqotda bank moliyaviy xavfsizligini baholovchi an'anaviy indikatorlar tashqi savdoni moliyalashtirishga xos maxsus indikatorlar bilan uyg'unlashtirildi. An'anaviy indikatorlar sifatida kapital yetariligi, likvidlik, muammoli kreditlar ulushi, daromadlilik va valyuta pozitsiyasi ko'rsatkichlari qaraldi. Maxsus indikatorlar sifatida esa tashqi savdoni moliyalashtirish faolligi, risklilik, daromadlilik va konsentratsiya koeffitsientlari taklif etildi.

Tashqi savdoni moliyalashtirish faolligi koeffitsienti bank aktivlarida trade finance operatsiyalari ulushini aniqlashga xizmat qiladi:

$$\text{TSMFK} = \text{TSMH} / \text{JA} \times 100\%$$

Bu yerda: TSMFK — tashqi savdoni moliyalashtirish faolligi koeffitsienti; TSMH — tashqi savdoni moliyalashtirish hajmi; JA — bank jami aktivlari.

Tashqi savdoni moliyalashtirish risklilik koeffitsienti trade finance portfelidagi muammoli yoki muddati o'tgan qarzdorlik ulushini baholaydi:

$$\text{TSMRK} = \text{TSMMQ} / \text{TSMH} \times 100\%$$

Bu yerda: TSMRK — tashqi savdoni moliyalashtirish risklilik koeffitsienti; TSMMQ — tashqi savdoni moliyalashtirish bo'yicha muammoli qarzdorlik; TSMH — tashqi savdoni moliyalashtirish hajmi.

Tashqi savdoni moliyalashtirish daromadlilik koeffitsienti bank daromadlarida trade finance operatsiyalaridan olingan daromadlar ulushini ko'rsatadi:

$$\text{TSMDK} = \text{TSMD} / \text{JD} \times 100\%$$

Bu yerda: TSMDK — tashqi savdoni moliyalashtirish daromadlilik koeffitsienti; TSMD — tashqi savdoni moliyalashtirishdan olingan daromadlar; JD — bank jami daromadlari.

Tashqi savdoni moliyalashtirish konsentratsiyasi koeffitsienti trade finance portfelining yirik mijozlar, tarmoqlar yoki mamlakatlarga bog'liqlik darajasini baholaydi:

$$TSMKK = YTSMO / TSMH \times 100\%$$

Bu yerda: TSMKK — tashqi savdoni moliyalashtirish konsentratsiyasi koeffitsienti; YTSMO — yirik mijozlar, tarmoqlar yoki mamlakatlar hissasiga to'g'ri keluvchi tashqi savdoni moliyalashtirish operatsiyalari; TSMH — tashqi savdoni moliyalashtirish hajmi.

Ushbu koeffitsientlar an'anaviy bank xavfsizligi indikatorlari bilan birgalikda qo'llanilganda tashqi savdoni moliyalashtirishning bank kapitali, likvidligi, daromadliligi, portfel sifati va risklar konsentratsiyasiga ta'sirini kompleks baholash imkonini beradi.

#### Tahlillar va natijalar

Tijorat banklari moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda tashqi savdoni moliyalashtirish mexanizmlari ikki tomonlama ahamiyatga ega. Bir tomondan, ular banklarning foiz va komissiya daromadlarini oshiradi, mijozlar bazasini kengaytiradi hamda eksport-import faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlaydi. Ikkinchi tomondan, mazkur operatsiyalar kapital, likvidlik, aktivlar sifati, valyuta pozitsiyasi, balansdan tashqari majburiyatlar va operatsion barqarorlikka ta'sir ko'rsatuvchi qo'shimcha risklarni yuzaga keltiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tashqi savdoni moliyalashtirishning tijorat banklari moliyaviy xavfsizligiga ta'siri sakkizta asosiy kanal orqali namoyon bo'ladi: kapital yetarliligi, likvidlik, aktivlar sifati, daromadlilik, valyuta riski, balansdan tashqari majburiyatlar, operatsion-hujjatli risklar hamda konsentratsiya riski.



1-rasm. Tashqi savdoni moliyalashtirish mexanizmlarining tijorat banklari moliyaviy xavfsizligiga ta'sir kanallari rasmga ko'ra, tashqi savdoni moliyalashtirish bank moliyaviy xavfsizligining asosiy tarkibiy qismlariga bevosita ta'sir qiladi.

Akkreditivlar va bank kafolatlari shartli majburiyatlarni yuzaga keltirsa, eksport-import kreditlari bank aktivlari sifati, zaxira xarajatlari va kapital yetarliligiga ta'sir ko'rsatadi. Faktoring va forfeyting operatsiyalari esa eksportyorlar likvidligini qo'llab-quvvatlash bilan birga, bank uchun debitorlik qarzlari sifati va kontragent riskini baholash zaruratini kuchaytiradi.

Kapital yetarliligi nuqtayi nazaridan eksport-import kreditlari, bank kafolatlari va akkreditivlar bo'yicha mijoz yoki xorijiy kontragent majburiyatlarini bajarmagan holatda bank ehtimoliy zararlarni o'z kapitali hisobidan qoplashga majbur bo'lishi mumkin. Shu bois trade finance portfeli hajmining ortishi bank kapital bazasi bilan mutanosib baholanishi zarur.

Likvidlik kanali tashqi savdo operatsiyalarining ko'pincha qisqa muddatda va xorijiy valyutada bajarilishi bilan izohlanadi. Import to'lovlari, xalqaro hisob-kitoblar va akkreditivlar bo'yicha majburiyatlar bankning valyuta likvidligiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli tashqi savdoni moliyalashtirish operatsiyalarining muddati, valyutasi va to'lov grafigi bank likvidlik boshqaruvi bilan muvofiqlashtirilishi lozim.

Aktivlar sifati bo'yicha tashqi savdoni moliyalashtirish eksport-import kreditlari va valyutada ajratilgan kreditlar sifati orqali bank xavfsizligiga ta'sir ko'rsatadi. Eksport tushumining kechikishi, importyorning to'lovga qobiliyatsizligi, xorijiy kontragent majburiyatlarini bajarmasligi yoki valyuta kursining keskin o'zgarishi muammoli qarzdorlikni oshirishi mumkin. Shu sababli trade finance portfeli bo'yicha muammoli qarzdorlik darajasi alohida monitoring qilinishi zarur.

Daromadlilik jihatidan akkreditiv, bank kafolati, inkasso, xalqaro to'lovlar, faktoring va forfeyting xizmatlari bankning komissiya daromadlarini oshirib, daromadlar diversifikatsiyasiga xizmat qiladi. Biroq ushbu daromadlar yuqori riskli mijozlar yoki cheklangan tashqi bozorlarga haddan tashqari bog'liq holda shakllansa, moliyaviy xavfsizlikka ijobiy ta'siri cheklanishi mumkin.

Valyuta riski tashqi savdoni moliyalashtirishdagi asosiy xavf manbalaridan biridir. Eksport-import operatsiyalari asosan xorijiy valyutada amalga oshirilgani sababli valyuta kursining o'zgarishi importyorlarning qarz yukiga, eksport tushumlarining milliy valyutadagi qiymatiga va bankning ochiq valyuta pozitsiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois valyuta aktivlari va majburiyatlari o'rtasidagi mutanosiblik moliyaviy xavfsizlikning muhim sharti hisoblanadi.

Balansdan tashqari majburiyatlar riski bank kafolatlari, standby akkreditivlar va ayrim hujjatli instrumentlar bilan bog'liq bo'lib, ular mijoz majburiyatlari bajarilmagan holatda real to'lov majburiyatiga aylanishi mumkin. Operatsion-hujjatli risklar esa akkreditiv shartlari, transport, bojxona, sug'urta va to'lov hujjatlaridagi xatoliklar hamda komplayens talablariga rioya qilmaslik natijasida yuzaga keladi.

Konsentratsiya riski trade finance portfelining ayrim yirik mijozlar, tarmoqlar yoki mamlakatlarga haddan tashqari bog'lanib qolishi bilan izohlanadi. Bunday holat tashqi shoklar, geosiyosiy beqarorlik yoki logistika uzilishlari sharoitida bank moliyaviy xavfsizligini zaiflashtirishi mumkin.

Tahlil natijalariga ko'ra, tashqi savdoni moliyalashtirish indikatorlari bank moliyaviy xavfsizligini baholashda uchta asosiy vazifani bajaradi: bankning tashqi savdo operatsiyalaridagi ishtirok darajasini aniqlaydi, trade finance operatsiyalaridan kelib chiqadigan risk va daromad nisbatini baholaydi hamda portfelning mijozlar, tarmoqlar yoki mamlakatlar bo'yicha konsentratsiyalashuv darajasini ko'rsatadi.

Tijorat banklari moliyaviy xavfsizligini baholashda faqat an'anaviy bank ko'rsatkichlariga tayanish yetarli emas. Chunki kapital yetarliligi, likvidlik, aktivlar sifati va daromadlilik bankning umumiy moliyaviy holatini ifodalasa-da, tashqi savdoni moliyalashtirish operatsiyalaridan kelib chiqadigan maxsus risklarni to'liq ochib bera olmaydi. Shu sababli bank moliyaviy xavfsizligini baholashda tashqi savdoni moliyalashtirishga xos indikatorlarni an'anaviy ko'rsatkichlar bilan uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq.

1-jadval.

Tijorat banklari moliyaviy xavfsizligini baholashda tashqi savdoni moliyalashtirish indikatorlaridan foydalanish yo'nalishlari

Indikator	Hisoblash tartibi	Baholash mazmuni	Moliyaviy xavfsizlikka ta'siri
Tashqi savdoni moliyalashtirish faolligi koeffitsienti	$TSMFK = TSMH / JA \times 100\%$	Bank aktivlarida tashqi savdoni moliyalashtirish operatsiyalari ulushini aniqlaydi	Bankning tashqi savdo operatsiyalaridagi ishtirok darajasini ko'rsatadi; haddan tashqari yuqori ulush kapital va likvidlikka bosim yaratishi mumkin
Tashqi savdoni moliyalashtirish risklilik koeffitsienti	$TSMRK = TSMMQ / TSMH \times 100\%$	Trade finance portfelidagi muammoli yoki muddati o'tgan qarzdorlik ulushini baholaydi	Eksport-import kreditlari sifati, zaxira xarajatlari va kapital yetarliligiga ta'sirini aniqlashga xizmat qiladi
Tashqi savdoni moliyalashtirish daromadlilik koeffitsienti	$TSMDK = TSMD / JD \times 100\%$	Bank daromadlarida tashqi savdoni moliyalashtirishdan olingan daromadlar ulushini ko'rsatadi	Komissiya va foiz daromadlari orqali bank daromadlari diversifikatsiyasini baholaydi
Tashqi savdoni moliyalashtirish konsentratsiyasi koeffitsienti	$TSMKK = YTSMO / TSMH \times 100\%$	Trade finance portfelining yirik mijozlar, tarmoqlar yoki mamlakatlarga bog'liqligini aniqlaydi	Geosiyosiy, logistika, tarmoq va kontragent risklari bank moliyaviy xavfsizligiga ta'sirini baholaydi
Valyuta riskiga ta'sir ko'rsatuvchi	Valyuta aktivlari / valyuta	Xorijiy valyutadagi aktiv va majburiyatlar	Valyuta kursi tebranishlarining bank

ko'rsatkichlar	majburiyatlari; ochiq valyuta pozitsiyasi	mutanosibligini baholaydi	likvidligi va kredit portfeli sifatiga ta'sirini aniqlaydi
Balansdan tashqari majburiyatlar ulushi	Bank kafolatlari va akkreditivlar / jami balansdan tashqari majburiyatlar	Shartli majburiyatlarning bank faoliyatidagi ulushini baholaydi	Kafolat va akkreditivlar bo'yicha ehtimoliy to'lov xavfini aniqlashga yordam beradi
Hujjatli-operatsion risk ko'rsatkichlari	Qayta ishlangan hujjatlar ulushi; rad etilgan hujjatlar ulushi; operatsiya bajarilish muddati	Hujjatli operatsiyalar sifati va tezkorligini baholaydi	Hujjatlardagi xatoliklar, komplayens buzilishlari va operatsion yo'qotishlar xavfini kamaytirishga xizmat qiladi

Jadvaldan ko'rinadiki, tashqi savdoni moliyalashtirish indikatorlari bank moliyaviy xavfsizligini baholashda maxsus metodologik vosita sifatida xizmat qiladi.

TSMFK bank aktivlarida tashqi savdoni moliyalashtirish operatsiyalarining ulushini aniqlab, bankning eksport-import faoliyatidagi ishtirok darajasini ko'rsatadi.

TSMRK trade finance portfelidagi muammoli yoki muddati o'tgan qarzдорlik ulushini baholash orqali ushbu operatsiyalarning kredit portfeli sifati va kapital yetarliligiga ta'sirini aniqlashga yordam beradi.

TSMDK tashqi savdoni moliyalashtirishdan olinayotgan daromadlarning bank umumiy daromadlaridagi ulushini ko'rsatib, daromadlar diversifikatsiyasini baholash imkonini beradi. TSMKK esa trade finance portfelining yirik mijozlar, tarmoqlar yoki mamlakatlarga bog'liqlik darajasini aniqlab, konsentratsiya riskini baholashga xizmat qiladi.

Mazkur indikatorlar birgalikda qo'llanilganda tashqi savdoni moliyalashtirish portfelini oddiy hajm ko'rsatkichi asosida emas, balki "hajm — risk — daromad — konsentratsiya" uyg'unligi asosida baholash imkonini beradi. Masalan, tashqi savdoni moliyalashtirish faolligi yuqori bo'lsa-yu, risklilik va konsentratsiya darajasi ham yuqori bo'lsa, bu holat bank moliyaviy xavfsizligi uchun qo'shimcha ehtiyot choralarini talab qiladi. Aksincha, trade finance faolligi maqbul darajada bo'lib, daromadlilik barqaror, risklilik va konsentratsiya past bo'lsa, ushbu faoliyat bank moliyaviy xavfsizligini mustahkamlovchi omil sifatida baholanishi mumkin.

Shu jihatdan taklif etilayotgan indikatorlar tizimi tijorat banklari uchun amaliy ahamiyatga ega. U bank rahbariyati va risk-menejment bo'linmalariga tashqi savdoni moliyalashtirish portfelining moliyaviy xavfsizlikka ta'sirini muntazam monitoring qilish, yuqori riskli mijozlar, tarmoqlar yoki mamlakatlarni erta aniqlash hamda trade finance xizmatlaridan olinayotgan daromadlarni ularning risklilik darajasi bilan solishtirib baholash imkonini beradi. Natijada tashqi savdoni moliyalashtirish banklar uchun faqat daromad manbai emas, balki maxsus risklarni keltirib chiqaruvchi murakkab faoliyat yo'nalishi sifatida bank moliyaviy xavfsizligini baholash tizimiga integratsiya qilinadi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari moliyaviy xavfsizligini baholashda kapital yetarliligi, likvidlik, aktivlar sifati va daromadlilik kabi an'anaviy indikatorlar muhim bo'lsa-da, ular tashqi savdoni moliyalashtirish operatsiyalaridan kelib chiqadigan maxsus risklarni to'liq aks ettira olmaydi. Chunki trade finance operatsiyalari bank balansiga, balansdan tashqari majburiyatlariga, valyuta pozitsiyasiga, daromadlar tarkibiga va risklar konsentratsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tahlillar tashqi savdoni moliyalashtirish mexanizmlari tijorat banklari moliyaviy xavfsizligiga kapital yetarliligi, likvidlik, aktivlar sifati, daromadlilik, valyuta riski, operatsion-hujjatli risklar va konsentratsiya riski orqali ta'sir qilishini ko'rsatdi. Shu bois tashqi savdoni moliyalashtirish banklar uchun bir vaqtning o'zida daromad manbai va risk shakllantiruvchi faoliyat yo'nalishi sifatida baholanishi zarur.

Tadqiqotda taklif etilgan TSMFK, TSMRK, TSMDK va TSMKK koeffitsientlari bankning tashqi savdo operatsiyalaridagi faolligi, portfel riskliliigi, trade finance daromadlari ulushi hamda mijozlar, tarmoqlar va mamlakatlar bo'yicha konsentratsiya darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Mazkur indikatorlarni bank ichki risk-menejment tizimiga kiritish moliyaviy xavfsizlikni baholashni chuqurlashtiradi va yuqori riskli yo'nalishlarni erta aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, tijorat banklarida moliyaviy xavfsizlikni baholash tizimini tashqi savdoni moliyalashtirishga xos indikatorlar bilan to'ldirish maqsadga muvofiq. Bunda trade finance portfeli "hajm — risk — daromad — konsentratsiya" tamoyili asosida baholanishi, eksport-import kreditlari va valyutada ajratilgan kreditlar bo'yicha muammoli qarzdorlik muntazam monitoring qilinishi, bank kafolatlari va akkreditivlar kabi balansdan tashqari majburiyatlarning kapital va likvidlikka ta'siri stress-testlar orqali aniqlanishi lozim.

Shuningdek, tashqi savdoni moliyalashtirish operatsiyalarida hujjatli va operatsion risklarni kamaytirish uchun elektron hujjat aylanishi, raqamli monitoring, komplayens nazorati va kontragentlarni chuqur tekshirish tizimlarini takomillashtirish zarur. Umuman olganda, tashqi savdoni moliyalashtirish indikatorlarini bank moliyaviy xavfsizligini baholash tizimiga integratsiya qilish eksport-import operatsiyalarini xavfsiz moliyalashtirish, daromad va risklar o'rtasidagi optimal nisbatni ta'minlash hamda xalqaro hisob-kitoblar barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2025). O'zbekiston Respublikasining 2024-yil yanvar–dekabr oylaridagi tashqi savdo

aylanmasi. [https://stat.uz/img/press\\_reliz\\_tashi\\_savdo\\_uzb\\_yanvar-dekabr\\_2024\\_p20124.pdf](https://stat.uz/img/press_reliz_tashi_savdo_uzb_yanvar-dekabr_2024_p20124.pdf)

2. International Monetary Fund. (n.d.). Global Financial Stability Report. <https://www.imf.org/en/publications/gfsr>

3. International Monetary Fund. (2019). Financial Soundness Indicators Compilation Guide. International Monetary Fund. <https://www.imf.org/en/data/statistics/fsi-guide>

4. Bank for International Settlements. (n.d.). Basel III: International regulatory framework for banks. <https://www.bis.org/bcbs/basel3.htm>

5. International Chamber of Commerce Academy. (2024). What is trade finance? An introductory guide. <https://academy.iccwbo.org/international-trade/article/what-is-trade-finance/>

6. Committee on the Global Financial System. (2014). Trade finance: Developments and issues (CGFS Papers No. 50). Bank for International Settlements. <https://www.bis.org/publ/cgfs50.pdf>

7. Accominotti, O., & Ugolini, S. (2020). International trade finance from the origins to the present: Market structures, regulation and governance. arXiv. <https://arxiv.org/abs/2009.08668>

8. Akbarov, B. U. (2024). Tijorat banklari moliyaviy xavfsizligini ta'minlash amaliyotini takomillashtirish [Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati]. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.

9. Malikova, D. M. (2024). Tijorat banklari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ilmiy asoslarini takomillashtirish [Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati]. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.

10. Axmedov, S. S. o'g'li. (2024). Tijorat banklari barqarorligini ta'minlashning moliyaviy strategiyalari [Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati]. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.

11. Axmedov, F. X. (2018). O'zbekistonda tijorat banklarining tashqi savdoga xizmat ko'rsatishini takomillashtirish [Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati]. O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi.

12. Xudaynazarov, Sh. I. (2026). Tadbirkorlik subyektlari eksportini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish [Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati]. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti. <https://api.ziyonet.uz/uploads/books/10000184/bczpD1F0vvpvwPX.pdf>

13. Ташмухамедова, Я. А. (2025). ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНОДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ СТРАНЫ. Innovation Science and Technology, 1(10), 47-51.

14. Tashmuxamedova, Y. Yangi O'zbekiston Sharoitida Soliq Ma'muriyatchiligi Transformatsiyasi Va Uning Moliyaviy Xavfsizlikka Ta'siri. *Green Economy and Development*, 4(1), 668670. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/8756>